TARIXI FARG‘ONA ASARIDAGI BA’ZI TEONIMLAR TAHLILI

Axmadaliyeva Odina Solijon qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya
Ushbu maqola teonimlar masalasiga qaratilgan bo‘lib, jahon va o‘zbek tilshunosligidagi teonimlar tadqiqi yuzasidan qilingan ishlarga havola berilgan. Is’hoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asari tarkibidagi teonimlar tahlilga tortilgan.
Kalit so‘zlar: *onomastika, teonim, “Tarixi Farg‘ona”, agionim, teolingvistika*.

KIRISH

So‘nggi yillarga kelib tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi negizida yangi fanlar vujudga keldi. Jumladan, insonning din bilan munosabatini o‘rganuvchi – teolingvistika paydo bo‘ldi. Teonimlar tilshunoslikdagi onomastika sohasining tarkibiy qismi sifatida o‘rganiladi. Miflar, diniy manbalarni o‘rganishga qiziqish anyan shu yo‘nalishning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Negaki, har qanday miflar yoki diniy rivoyatlar tarkibini aniqlash shu xalqning madaniyati bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Jahon tilshunosligida G.A.Gabinskiy, Yu.N.Mixaylov, N.A.Suyargulov, A.S.Serikbayeva kabilar teonimlar tadqiqi bilan shug‘ullanganlar. Teonimlar yuzasidan qimmatli fikrlar bildirganlar.

O‘zbek tilshunosligida N.Xusanov, M.Galiyeva, F.Nurmonov, M. Umarxo‘jayev, N.Sharofutdinova kabilar tadqiqot olib borganlar. Xususan, N.Sharofutdinovaning tadqiqot ishida teonimlarning o‘zlashishi islom dinining kirib kelishi bilan bog‘liqligi, natijada asliy teonimlarning faolligi pasayib borishi, fors tilidan o‘zlashgan teonimlarning tasavvuf adabiyoti bilan aloqadorligi, badiiy adabiyotning xalq tiliga ta’sri aniqlangan, universal leksik qatlam doirasiga kiruvchi teonimlarning diniy arboblar va omma nutqida qo‘llanish darajasining umumiyligi, ular o‘zaro farqlanmasligi, mazkur leksik qatlam diniy marosimlarda eng faol qo‘llanadigan leksikon bo‘lib, so‘zlovchi ruhiyatini ifodalashda muhim poetik vazifa bajarishi asoslangan[1].

Teonim – diniy tushunchadagi xudolar, ma’budlar, diniy – afsonaviy shaxslar nomlari. “Teonim – (grekcha – teos – Olloh + atoqli ot) – Allohning nomi va atributlarining atoqli oti”[2]. Teonimlar bevosita Allohning nomi, payg‘ambarlar ismlarini hamda xalifalar nomlarini qamrab oladi. “Tarixi Farg‘ona” asari tarkibida bunday nomlarni ko‘p o‘rinlarda uchratish mumkin. Birgina Alloh teonimi ko‘plab shakllarda uchrashi kuzatiladi. Jumladan, Xudovandi olam, Boriy taolo kabi. *“Muhmmad Mustafo sallollohu alayhi vasallam hazrati Boriy taolo martaba topganda har ikkilaringiz tobeu matbuolik iddasidan kechib… degan ekan”* (T.F. – 10b). Boriy taolo teonimi xudo so‘zi o‘rnida ishlatilgan bo‘lib, so‘z takrorini oldini olishga xizmat qilgan. Bunday

[1] Sharofutdinova N. O ‘zbek tilida teonimlar va ularning lingvopetik tadqiqi. Filol.fan.fals.nomz. …diss, avtoref. – Farg‘ona, 2024. – B. 9
[2] Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. B. - 75.

birliklardan foydalanish yozuvchi diniy bilimidan ham darak beradi. Asarda keyingi teonim sifatida payg‘ambar nomlarini keltirish o‘rinli. Payg‘ambar so‘zi fors-tojik tilida yasama so‘z hisoblanadi. Birinchi qismi ‘payg‘am” (ft) – xabar ma’nosini, ikkinchi kompanenti “bar” (eltmoq fe’lining hozirgi zamon asosi) dan iboratdir. Diniy adabiyotlarda, xususan, Qur’oni Karim va hadislarda payg‘ambar ma’nosida nabi va rasul so‘zlari ishlatilgan. Har ikkala so‘z ham arabcha bo‘lib, nabi – ilohiy xabar keltiruvchi, xabarchi; rasul – elchi, Allohning elchisi – ma’nolarini bildiradi. Ba’zi tarixiy lug‘atlarda “rasul” ilohiy kitob sohiblariga nisbatan ham ishlatilgan[3].

“...bu bandayi Xudo va ummati Mustafo alkan ul-lison, notvon. (T.F. – 1b). “***Muhammad Mustafo sollollohu alayhi vassallam*** *hazrati Boriy taolo oldida martaba topganda har ikkilaringiz tobeu matbu’lik iddaosidan kechib degan ekan”(T.A.10b).* Muhammad - Mustafo – “arabcha-tanlangan, saralab olingan. Bu nom Muhammad (S.A.V)ning sifatlaridan biridir[4]. Y.Avloqulovning tadqiqotlarida payg‘ambar va shu kabi diniy shaxslar agionimlar deyiladi. Agionim – agio – muaqddas, ilohiy, onim – nom so‘zlaridan tuzilib, ilohiy nomlarni o‘rganadi. Demak, tahlil qilinayotgan diniy nomlar agionimlardir.

“Va havolay Barokatin mazorot ul-abror va-s-suloho va qabru Asaf bin Burhayo va vazir ***Sulaymon bin Dovud alayhissalom*** *va biha indan-nabsi mashhad Qutayba bin Muslim biqaryati Gulja (T.F. – 2b).* Sulaymon – qadimgi yahudiycha, himoyalangan, berk, muhofazaga olingan, shikast topmaydigan yoki tinch, osoyishta. Ba’zilar tinchliksevar deb izohlashadi. Bu ism qadimgi yahudiy tilida Sheloma, ar. Sulaymon, “Tavrot” tilida – Solomon. Sulaymon Payg‘ambarning nomi[5]. Dovud – qadimgi yahudiy tilida mehrli, mehribon, dildan sevuchi, suyukli, chin do‘st yoki shifo beruvchi, sog‘aytiruvchi. Dovud payg‘ambar temirchilarning piri hisoblanadi [6] . Dovud payg‘ambarning o‘g‘li Sulaymon alayhissalom haqida ko‘plab rivoyatlar mavjud. Qur’oni karimda uning nomi bir necha bor keltirilib, Xudo tomonidan noyob aql berilganligi qayd etilgan.

O‘g‘uzxon hazrati ***Nuh alayhissalomning*** *to‘qquzinchi o‘g‘illaridir*[7]. Nuh (yah) – bu ism uzoq umr kechirgan Nuh payg‘ambar nomi bo‘lgan. Nuho – aql, zehn yoki ovunch, tasalli, taskin, yupanch; sokinlik, orom, rohat. Nuh – payg‘ambarning laqabidir. Uning ismi asli Sakib>< Sokib (ar) – qo‘ymoq, to‘lmoqdir[8]. “Qissasi Rabg‘uziy”da Nuh alayhissalom haqida: “Nuh ibn Malik Manusalx ibn Idris. Onasi oti Shamxo binti Anursh edi. Nuhdin Odamg‘a tegi o‘n ota erdilar, qamug‘lari musulmon erdilar. Oti Yashkir erdi, navha birla yig‘lamish uchun, Nuh atandi”[9]. Ya’ni, Nuh alayhissalom Idris payg‘ambar avlodidan ekanligi aytildi. Navha – arabcha, dod, faryod, o‘kirib yig‘lash (O‘TIL) demakdir. Bizningcha, Nuh alayhissalomga yig‘loqiligi sababli Nuh, ya’ni

[3] Mamajonov M. antroponimlar diskurs relevanti sifatida. Filol.fan.fals.dok. …diss. – Farg ‘ona, 2020. – B. 53
[4] Begmatov E. O ‘zbek ismlari ma’nosi. Toshkent: O ‘zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B.262.
[5] Begmatov E. O‘zbek ismlari ma’nosi. Toshkent: O’zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B. 397
[6] Begmatov E. O‘zbek ismlari ma’nosi. Toshkent: O ‘zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B.115
[7] Ibrat I. tanlangan asarlar. Toshkent: Ma’naviyat, 2005. – B.140.
[8] Begmatov E. O‘zbek ismlari ma’nosi. – B.305.
[9] Qissasi Rabg‘uziy. – B.39.

yupatuvchi laqabi berilgan. chaqaloqqa bunday ismning berilishi, shubhasiz, uning uzoq umr ko‘rishiga ishora qiladi. Ta’kidlash kerakki, Nuh ismi o‘zbek antroponimlari ichida juda kam uchraydigan ism hisoblanadi.

Shuningdek, Muhammad (S.A.V) dan keyingi to‘rt xalifa (choryorlar) nomlari ham asarda alohida ahamiyatga ega. Xalifa – arabcha, o‘rinbosar, noib. Musulmonlar jamoasi va musulmon davlatining diniy, ayni bir paytda dunyoviy boshlig‘i; ruhoniy hukmdor; Muhammad payg‘ambarning vorisi, Allohning yerdagi noibi (O‘TIL). “Tarixi Farg‘ona” asarida xalifalardan Usmon ibn Affon hamda Ali roziyollohu anho keltirilgan. *“Va yo‘qolu biha alfon va sa’ba mia min assobati ba-t-tobi’iyn ja ava izzatu arsilhihim amir ul-mo ‘minin Usmon ibn Affon roziyollohu anhum va amri alayhim Muhammad bin Jarir” (T.A. -2b).* Usmon – ummaviylar sinfiga kiradigan uchinchi xalifa. Usmon – arabcha, siniqchi, singanlarni davolovchi, shikastband yoki og‘ir, bosiq, mard, jasur degan ma’noni anglatadi[10]. Usmon (R.A) payg‘ambarimizning ikki qizi Ruqayya va Ummu Kulsumga uylanganligi sababli “Zunnurayn”, ya’ni “ikki nur sohibi” laqabini olgan. *“Chunonchi, avvalo arablarni hazrat Ali zamonlarida Ka’b ul-Axbor manoqiblarinda masturdurki, Ka’b ul-Axbor Farg‘ona shaharlarida mo‘g‘uliyalar ilan muhoraba qilib, qalmoqlar g‘olib bo‘lib, qaytib ketgon ekonlar”*(T.A. 85). Ali – to‘rtinchi xalifaning nomi. Ma’nosi – oliy, buyuk. Aytishlaricha, payg‘ambarimiz oliy bo‘lsin deb, o‘zlari tanlagan ekanlar.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, tilshunoslikda teonimlarni tadqiq qilish ma’lum millatning madaniyatini tanishtirish imkonini beradi. Teonimlar madaniyatshunoslik, falsafa, sotsiologiya, psixologiya kabi fanlar bilan aloqdagi fan ekanligi ma’lum. Endilikda, til va din o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalishda tadqiqot olib boorish tilshunoslar oldidagi dolzarb masalalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibrat I. Tanlangan asarlar. Toshkent:Ma’naviyat, 2005
2. Begmatov E. O‘zbek ismlari ma’nosi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2007
3. Sharofutdinova N. O‘zbek tilida teonimlar va ularning lingvopoetik tahlili. Farg‘ona, 2024

[10] Begmatov E. O ‘zbek ismlari ma’nosi. Toshkent: O’zbekiston milliy ensklopediyasi davlat imliy nashriyoti, 2007. – B. 448